

XX ASR OXIRLARI XALQARO MUNOSABATLAR

Ismoilova Gulrux Shodi qizi

Tursunova Toiba Tillo qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

4-bosqich Tarix yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoning turli mintaqalaridagi siyosiy beqarorlik yangidan yangi mojarolar hamda Tropik va Janubiy Afrikaning bir qator mamlakatlari qonli urush, davlat to'ntarishlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Xalqaro munosabatlar, globallashuv, davlat to'ntarishlari, "uchinchi dunyo", Yevropa Ittifoqi (YI), Iqtisodiy hamkorlik va hk.

Kirish: Hozirgi dunyo murakkab va turfa xil dunyodir. Unda turli mamlakatlar yonma-yon yashaydi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Butun dunyo bilan muvaffaqiyatli munosabatlarga kirishish, do'stlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun mavjud voqeylikning muammolarini chuqur bilish va bu bilimdan umum manfaat yo'lida foydalanish lozim bo'ladi. Jahon tarixini va jumladan xorijiy mamlakatlarning yangi davrdagi rivojlanishini mukammal darajada bilmoq insoniyat sivilizasiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand qiladi, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashadi va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topishga imkoniyat yaratadi.

Asosiy qism: Jahon tarixi eng yangi davrining uchinchi bosqichi 1991-yildan to hozirgi kungacha bo'lgan voqealarni o'rganadi. Bu davrda sotsialistik tizimning barbod bo'lishi SSSR tarqalib ketishi, jahon miqyosida kuchlar nisbati, qudratli davlatlar o'rtasida shakllangan muvozanatga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bu paytda iqtisodiy va madaniy hayotning globallashuvi, ekologiya muammolarining keskinlashuvi, jahonning juda katta qismida modernizatsiya jarayonlarining tugallanmagani bilan bog'liq ziddiyatlarning kuchayishi xalqaro barqarorlikka jiddiy xavf sola boshladi. Bu ko'plab mamlakatlardagi murakkab masalalar manbaiga aylandi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng jahondagi kuchlar nisbatini belgilab kelgan kapitalistik va sotsialistik harbiy-siyosiy bloklar o'rtasidagi qarama-qarshilik 1990-yillarda barham topdi. Ammo ayni paytdagi mintaqaviy mojarolar va "kichik urushlar" xavfi kuchayib, shaxs hamda xalqlarning huquq va xavfsizligini himoya qilish, gumanitar-huquqiy, madaniy aloqalarni ta'minlash, obyektiv axborot tarqatish masalalari jahon siyosatining dolzarb muammosi edi. 1990-yillar boshlarida xalqaro munosabatlar tizimida tub burilish yuz berdi. Avval Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida sotsializmning barbod bo'lishi, keyin esa SSSR tarqalib ketishi va "ikki qutbli dunyo" modelining barham topishi natijasida dunyoda

bitta qutb, ya'ni AQSH boshchiligida G'arb davlatlarining hukmronligi o'rnatildi. Sobiq sotsialistik lager mamlakatlaridagi qiyinchiliklar, Germaniyaning birlashishi va G'arb davlatlaridagi integratsiyalashuv jarayonlari XX asr oxiri–XXI asr boshlaridagi xalqaro munosabatlarning muhim omiliga aylandi. Ayni paytda ikki qutbli dunyo tizimining o'zgarishi bir qator davlatlar siyosiy rivojlanishida keskin burilish, totalitar mafkuraning barham topishiga olib keldi. Vujudga kelgan mafkuraviy bo'shliqqa millatchilik, diniy mutaassiblik, tajovuzkorlik g'oyalari kirib kela boshladi. BMTning tinchliksevarlik harakatlari har doim ham samarali bo'lmadi. Ikki qutbli dunyo barham topgandan so'ng global to'qnashuv xavfi o'rnini lokal urushlar xavotiri egalladi. Sobiq SSSR va Yugoslaviya hududlaridagi muammolardan tashqari Yaqin Sharqdagi holat ham tangligicha qoldi. Shuningdek, Hindiston va Pokistonning yadro quroliga ega bo'lish uchun qilgan intilishi shu mintaqadagi ziddiyatlarni kuchaytirdi.

Dunyoning turli mintaqalaridagi siyosiy beqarorlik yangidan yangi mojarolarni keltirib chiqardi. 1990-yillar oxirida Tropik va Janubiy Afrikaning bir qator mamlakatlari qonli urush, davlat to'ntarishi, partizanlik harakatlari maydoniga aylandi. XXI asr boshlariga kelib jahonda yangi qudratli davlatlarning paydo bo'lishi va ularning muqobil markazlarga aylanish jarayoni ko'zga tashlanib qoldi. Bu davlatlar ta'sirining oshishida ularning iqtisodiy imkoniyatlarini o'sishi asosiy omil bo'ldi. Hindiston, Pokiston va Shimoliy Koreyaning yadro quroliga ega bo'lishi bu davlatlarning xalqaro munosabatlarda mustaqilligini oshirdi. Eron ham o'z rolini oshirishga intilib, boshlagan yadroviy dasturi jahon jamoatchiligini qattiq tashvishga soldi. Xitoy va Braziliyaning jadal rivojlanishi ularni "uchinchi dunyo" mamlakatlari qatoridan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning kuchli o'nligi va jahon siyosatining yetakchilari qatoriga olib chiqdi. Shunday jadal rivojlanayotgan boshqa mamlakatlar — Turkiya, Saudiya Arabistoni, Meksika, Fors ko'rfazi mintaqasidagi arab davlatlari va boshqa davlatlar xalqaro va mintaqaviy munosabatlarga kuchli ta'sir ko'rsata boshladi. Ayni paytda AQSHning xalqaro munosabatlarda bu davlatlarga ta'siri kamayib bordi. Shu tariqa ko'pqutbli dunyo modelining shakllanish jarayoni boshlandi. Bu jarayonda har bir davlat o'z o'rniga ega bo'lishga intilmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va integratsiyaning kuchayishiga qaramasdan, jahon hamjamiyati oldida hal qilinishi lozim bo'lgan bir qator muammolar turibdi. Ular avvalo Yaqin Sharq (Iroq, Falastin, Suriya), Shimoliy Koreya, Ukraina va Afrikadagi mojarolar bilan bog'liq. Bu masalalarni hal qilishga G'arb mamlakatlari, Rossiya va Xitoyning turlicha yondashuvi ular o'rtasidagi munosabatlarni murakkablashtirmoqda. Ikki yetakchi yadroviy davlat — AQSH va Rossiya o'rtasidagi murakkab munosabat jahon jamoatchiligi oldida turgan bir qator dolzarb muammolarni hal qilishga xalaqit bermoqda. Shunday muammolar ichida eng xavflisi xalqaro terrorizmdir. U hozir global jahon sivilizatsiyasining shakllanish jarayoni o'z yakuniy pallasiga o'tayotgan davrda yangi sifat kasb etdi va jahon siyosatida katta muammoga aylandi.

Xalqaro munosabatlardagi o'zgarishlar XXI asrda xalqaro xavfsizlik va hamkorlikka asoslangan yangi dunyo tartibini o'rnatish g'oyasini ilgari surishga olib keldi. Ammo bu vazifani amalga oshirish jahon mamlakatlari, birinchi o'rinda, yetakchi davlatlar o'rtasida hamkorlikni talab qiladi. "Sovuq urush" yakunlangandan so'ng xalqaro munosabatlarda, xususan, AQSH va Rossiya o'rtasida vujudga kelgan hamkorlik 2014-yilgacha davom etdi. Shu yili Ukrainada boshlangan siyosiy inqiroz Rossiya va G'arb davlatlari o'rtasidagi jiddiy qarama-qarshilikning yangi bosqichiga olib keldi.

Xulosa: XXI asrga kirib kelgan insoniyat nafaqat global da'vatlarga, balki geosiyosiy holatning o'zgarishi bilan bog'liq muammolarga ham duch kelmoqda. Yagona buyuk davlat bo'lib qolgan AQSH o'zining yetakchilik rolini jahon hamjamiyatining xohish-irodasi sifatida taqdim etib keldi. Iroq va sobiq Yugoslaviya, Afg'oniston va Suriyada harbiy kuchning qo'llanishi, Shimoliy Atlantika ittifoqining kengayishi, sayyoramizning boshqa mintaqalarida ham kuchdan keng foydalanish AQSHning jahonda mutlaq gegemonligini namoyish qildi. Ammo bugun xalqaro munosabatlarda tobora katta rol o'ynayotgan Xitoy, Rossiya, Hindiston kabi davlatlarning bunga rozi bo'lishi qiyin. Vujudga kelgan sharoitda insoniyatning haqiqiy xavfsizligi mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi qarama-qarshilikning chuqurlashuvi bilan emas, sivilizatsiyani saqlab qolish va uning gullab-yashnashini ta'minlashga qodir bo'lgan o'zaro hamkorlik bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yu.E.Ivanin "Yangi davrda Yevropa diplomatiyasining tarixshunosligi"
2. M.S.Gaferli va A.N.Kosayev "Rivojlanishning o'zbek modeli: tinchlik va barqarorlik, taraqqiyot asosi".
3. Shuhrat Ergashev "Eng yangi tarix"
4. Ollomurodov, Nurali. "QISHLOQ XO'JALIGIDA ISH HAQI BILAN BOG'LIQ QARAMA-QARSHI JARAYONLARNING TAHLILI (XX Asrning 50 Yillari Misolida)". Tadqiqotchi.Uz, 2023, <https://doi.org/10.26739/2181-9599>.
5. Ollomurodov, Nurali. "Qishloq Aholisining Ijtimoiy Turmushidagi o'zgarishlar". «ADAD PLYUS» МЧЖ, 2022.
6. Ollomurodov, Nurali. "СОВЕТ ХУКУМАТИНИНГ ДИНГА МУНОСАБАТИ ВА УНИНГ ЗАРАПЛИ ТОМОНЛАРИ". «BEST PUBLICATION» Ilm-ma'rifat Markazi ©, 2022.